

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA PARI OBRAZI

Barchinoy Kenjabayeva

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda o‘zbek xalq ertaklarida pari obrazi talqini berilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, xalq ertaklari, mif, pari, qush, evrilish.

Deyarli har bir xalq folklorida qahramonlarning tashqi qiyofasiga ta’rif berish keng tarqalgan usullardan biridir. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotida ham mazkur usuldan samarali foydalanilgan ko‘plab ertaklarni ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “Guloyim”, “Ozodachehra” “Mohistara”, “Vospiroxun” ertaklari shular jumlasidan. Bu kabi ertaklarda “oy desa oydek, kun desa kundek husn-u jamoli bor”, “to‘lin oyni xira qilgudek go‘zal” qizlar ta’riflari ko‘p uchraydi. Aytishimiz mumkinki, bunday ta’riflarning egasi, shubhasiz, pari obrazi hisoblanadi. Bunday deyishimizning sababi parilar ko‘pincha go‘zal ayol yoki qiz qiyofasida tasavvur qilingan. Pari – Sharq xalqlari folklorida keng tarqalgan mifologik obroz, ma’shuqa timsolining ideallashtirilgan shakli, go‘zallik ramzi. Dastlab, “Avesto”da “payrika” shaklida uchraydi. Ahriman tomonidan yaratilgan yovuz kuch timsoli – “payrika” – u parilar singari go‘zallik, sehrgarlik, o‘z shaklini o‘zgartira olish kabi xususiyatlarga ega.¹ A.Y.Bertlesning fikricha, “pari” so‘zining o‘zagi hind-yevropa bobo tilidagi “pery” leksemasi bo‘lib, mifologiyada go‘zallik va muhabbat ilohasining atoqli oti hisoblangan.

O‘zbek olimasi A.Mo‘minovanning yozishicha, qadimgi mifologiyada parilar odamlarni yovuz kuchlar asoratidan qutqaruvchi afsonaviy xaloskor sifatida tasvirlagan. Pari obrazi xalqning qadimiy tasavvurlari bilan bog‘liq bo‘lib, uning paydo bo‘lishi, ma’no qirralarining rivojlanishi bevosita xalq mifologiyasiga borib taqaladi. Pari obrazi ko‘p hollarda zardushtiylik dini bilan bog‘lab kelinadi. Adabiyotshunos olim O. Qayumov ham pari obrazi haqidagi rivoyat va afsonalarni zardushtiylik dini bilan bog‘laydi. Bunda u rus olimi G.P.Snesarevning fikrlariga tayangan. Etnograf olim G.P.Snesarev: “Xorazmning ba’zi joylarida devlar parilarning ota-bobolari bo‘lganligi to‘g‘risidagi qarashlar mavjud”²ligini aytadi. Lekin Olim Qayumov rus olimining pari obrazi Eron mifologiyasi bilan bog‘liqligi haqidagi fikrlariga e’tiroz bildirib, “pari obrazi O‘rta Osiyoda yashagan qadimgi

¹ Авесто. Асқар Маҳкам таржимасию – Тошкент: Шарк, 2001. – Б. 335.

² Снесарев Г.П. Реликты домусульманских и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

dehqonlarning zardushtiylikdan avvalgi mifologiyasida shakllangan bo‘lib, dastlab hosildorlik kaliti bilan bog‘liq holada tasavvur qilingan”³ degan fikrni ilgari suradi.

Rivoyatlarga ko‘ra, parilar Ko‘hi Qof tog‘i yaqinidagi Eram bog‘ida yashaganlar, o‘z shohi va saltanatiga ega bo‘lishgan, ularni g‘ayritabiiy kuchlar – devlar qo‘riqlagan.

Ertaklarda parilar nihoyatda go‘zal, aqlli, donishmand, latofat va nazokat egasi sifatida ta‘riflangan. U sehrli xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘rni kelganda turli qiyofaga kira oladi, o‘zining adolatli harakati, to‘g‘ri va aniq maslahatlari bilan qahramon g‘alabasiga imkon yaratadi („Oypari“, „Guliqahqahpari“, „Xurshid bilan Laylo“, „Odilbek bilan Xurram“ kabi).

„Go‘ro‘g‘li“ turkumi dostonlarida parilar vafodor ayol, do‘st, maslahatgo‘y, aql-u farosatda, jasoratda va obro‘da ko‘pincha erkaklardan ham qolishmaydigan, ular bilan birga jangga kirib, qahramonlik ko‘rsata oladigan obraz sifatida tasvirlangan. Folklor asarlarida parilar hayoti orqali inson turmushining ideal manzaralari aks etgan. Parilar obrazi mumtoz adabiyotda ham ko‘p uchraydi (masalan, Alisher Navoiy g‘azallarida).

Mumtoz adabiyotda N.Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham pari obraziga murojaat qilinadi. Bu asar diniy bo‘lganligi uchun adib bosh manba sifatida “Qur‘on”ga tayanadi.

Umuman, pari xalqi xalq og‘zaki ijodi namunalarida qahramon boshiga tushgan turli sarguzashtlar sababchisi, uni turli vaziyatlardan qutqaruvchi maslahatgo‘y homiy hamda sevimli yor sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek parilar chiroyda tengi yo‘q, har xil qiyofaga kira olgan va qahramonlar g‘alabasiga yordam bergan. Buni o‘zbek xalq ertaklari “Kulsa gul, yig‘lasa dur”, “Mohistara”, “Vospiroxun”, “Mislabu” ertaklari misolida ham ko‘rishimiz mumkin. “Mislabu” ertagi misolida oladigan bo‘lsak, ertakda pari Mislabu shunday ta‘riflanadi: “Nil daryosi bo‘yida tilla qo‘rg‘onda o‘zi xur, tishlari dur, xushmuomala, sochi sunbul bir Mislabu degan qiz bor...”, “Mohistara” ertagida esa “Mohistara katta bir uyni yoritib turgan katta bir Ravshan chiroqdek” deb tasvirlangan. Pari obrazining yana bir xususiyatlaridan biri sehr va evrilishdir. Ular bir yumalab xohlagan qiyofalariga kira oladi. Masalan, “Mohistara” ertagida parilarning evrilishi “...goho gul bo‘lib ochilib, tepasida bulbul bo‘lib sayraydi. Goho kaptar bo‘lib uchadi, goho baliq bo‘lib suvda suzadi. Goho kiyik bo‘lib tog‘larga chiqib keladi.” deb tasvirlangan.

³ Каюмов О. Пари образининг генезисига доир мулохазалар//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 98. – 4 сон. – Б. 43.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Parilardagi yana bir xususiyatlardan biri bu agarda ularga inson tanasi tegsa ularning qanotlari qirqilib, pariligidan mahrum bo‘lishidir. “Mislabu” ertagida “...agar men bu gaplarni aytsam parilik qanotim qirqilib, osmonda ucha olmay qolaman...”, “Mohistara” ertagida esa “Sen bilasanki, pari xalqining taniga odamzodning tani tegmasligi kerak, agar tegdimi, endi u butun parilar olamida dog‘ tekkan va sharmanda sanaladi, uni parizodga emas, odamzodga uylantirish kerak bo‘ladi” deya keltirilishi fikrimizga dalil bo‘la oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xalq og‘zaki ijodida parilar go‘zallik timsoli, qahramonlarning mushkul vaziyatlarida yordamga keluvchi haloskor, sevimli yordir. Davrlar o‘tishi bilan pari obrazi ham hayotiylik kasb eta boshlagan. Ular oddiy odamlarga xos belgi va xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan go‘zallik timsoliga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek xalq ijodi. “Fantastik ertaklar”. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1996.
2. Qayumov O. Pari haqidagi xalq qarashlari//O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent,1996. – 1-son.
3. Avesto. Asqar Mahkam tarjimasini. – Toshkent: Sharq, 2001.
4. Фольклор и этнография. – Л.: Наука, 1970.